




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**NAMANGAN VILOYATIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-aprel***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 69-227-84-95***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 316 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 87 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 230 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-aprel oyida tumanlarning chakana savdo tovar aylanmasi


5 886,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 109,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 464,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 150,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 421,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 921,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,1 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	5 886,1	109,5
Namangan shahar	2 513,1	113,9
tumanlar:		
Mingbuloq	189,7	105,6
Kosonsoy	275,2	106,5
Namangan	292,5	107,3
Norin	263,1	105,2
Pop	326,2	106,3
To'raqo'rg'on	440,1	106,0
Uychi	298,8	106,2
Uchqo'rg'on	246,1	106,4
Chortoq	259,2	108,8
Chust	475,0	107,0
Yangiqo'rg'on	307,2	105,9


2024- yilning yanvar-aprel oyida 2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan tumanlarning Namangan sh. (113,9 %), Chortoq (108,8 %) va Namangan (107,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-aprel)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024 yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,5% ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-aprel uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-aprel oyida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri 42,7 % bilan 2 513,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mingbuloq 3,2 % bilan 189,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-aprel oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 5 421,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 7,1 % ga oshdi. Namangan viloyatida miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,1 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 50,0 % ga o'sdi va 464,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,9 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)





 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (99,0 %), Kosonsoy(98,7 %), Uchqo'rg'on(97,8 %) va Mingbuloq(97,7 %) tumanlarnida yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chortoq (12,7 %), Namangan shahar (10,6 %), To'raqo'rg'on (9,5 %), Namangan (9,0 %), Pop(8,3 %), tumanlarnida kuzatildi.

7,9%

92,1%



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Namangan shaxar

3 597,8

Mingbuloq

1 382,6

Kosonsoy

1 204,5

Namangan

1 514,5

Norin

1 494,2

Pop

1 381,7

To'raqo'rg'on

1 791,1

Uychi

1 282,9

Uchqo'rg'on

1 325,2

Chortoq

1 203,9

Chust


1 659,2

Yangiqo'rg'on

1 292,7

2024- yilning yanvar-aprel oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 915,4 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 107,1%) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (3 597,8 ming. so'm), To'raqo'rg'on(1 791,1 ming. so'm) va Chust (1 659,2 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-aprel), foizda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	405,5	110,4
Namangan sh.	113,2	86,6
tumanlar:		
Mingbuloq	10,1	106,0
Kosonsoy	17,3	175,3
Namangan	14,8	109,9
Norin	31,9	102,3
Pop	33,2	136,7
To'raqo'rg'on	53,4	96,1
Uychi	17,6	185,3
Uchqo'rg'on	24,6	114,9
Chortoq	33,3	152,7
Chust	37,1	157,2
Yangiqo'rg'on	18,8	107,3


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-aprel)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-aprel)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-aprel oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 921,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 405,5 mlrd. so'mni (110,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 516,2 mlrd so'mni tashkil etdi (105,8 %).













2024-yilning yanvar-aprel oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 405,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (197,0 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>197,0 mlrd. so'm</p>  <p>48,6%</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>34,4 mlrd. so'm</p>  <p>8,4%</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>52,1 mlrd. so'm</p>  <p>12,8%</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>18,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,2%</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>22,2 mlrd. so'm</p>  <p>5,5%</p>	<p>Tuxum</p> <p>13,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,3%</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>12,5 mlrd. so'm</p>  <p>3,1%</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>20,3 mlrd. so'm</p>  <p>5,0%</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>7,5 mlrd. so'm</p>  <p>1,8%</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>10,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,7%</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>6,2 mlrd. so'm</p>  <p>1,5%</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>10,8 mlrd. so'm</p> <p>3,1%</p>

2024- yilning yanvar-aprel oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 516,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi – 368,8 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 42,9 mlrd. so'mni, otlar –2,8 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>172,4 mlrd. so'm</p>  <p>52,8%</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>103,8 mlrd. so'm</p>  <p>20,1%</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>92,6 mlrd. so'm</p>  <p>17,9%</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>40,3 mlrd. so'm</p>  <p>12,2%</p>	<p>Otlar</p> <p>2,8 mlrd. so'm</p>  <p>0,5%</p>	<p>Echkilar</p> <p>2,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,5%</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>0,1%</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,02 mlrd. so'm</p>  <p>0,004 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,02 mlrd. so'm</p>  <p>0,004%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 170 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 168 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	143,8	106,9
Namangan sh.	99,0	111,8
tumanlar:		
Mingbuloq	2,9	107,4
Kosonsoy	2,9	105,8
Namangan	7,0	59,4
Norin	2,4	108,3
Pop	7,7	130,6
To'raqo'rg'on	3,7	108,0
Uychi	2,2	107,2
Uchqo'rg'on	3,5	105,5
Chortoq	3,3	105,8
Chust	6,8	105,5
Yangiqo'rg'on	2,4	106,4

2024- yilning yanvar-aprel oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 143,8mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,9% ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 86,6% ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Namangan viloyati	978,6	109,8
Namangan sh.	741,0	111,3
tumanlar:		
Mingbuloq	1,7	106,1
Kosonsoy	1,1	107,3
Namangan	4,5	107,0
Norin	6,0	109,1
Pop	38,8	183,8
To'raqo'rg'on	1,6	106,8
Uychi	5,9	106,9
Uchqo'rg'on	1,1	108,6
Chortoq	5,0	107,0
Chust	168,5	95,9
Yangiqo'rg'on	3,2	107,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Namangan shahri (741,0 mlrd. so'm), Chust (168,5 mlrd. so'm) va Pop (38,8 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024 yilning yanvar-aprel oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 978,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,8 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 403,2 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 158,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 575,4 mlrd. so‘mni (o‘shish sur‘ati –90,5 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-aprel oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 307,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,5 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 477,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 74,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 508 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Pop(23,4m), Namangan sh. (138,4), Namangan (115,0) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	3 307,1	112,5
Namangan sh.	2 338,6	115,8
tumanlar:		
Mingbuloq	64,0	98,5
Kosonsoy	88,1	95,2
Namangan	77,1	106,2
Norin	89,3	101,5
Pop	73,5	107,1
To'raqo'rg'on	136,3	79,0
Uychi	74,3	73,5
Uchqo'rg'on	22,6	33,1
Chortoq	174,1	252,0
Chust	103,3	175,2
Yangiqo'rg'on	66,1	106,1